



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi v.b:
S.Annaklichev

«10» aprel 2025 y.
№ 5

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Odob-axloq komissiyasining
yig‘ilish bayoni

2024-yil “9” aprel

Toshkent shahri

Yig‘ilish ishtirokchilari:

Raislik qiluvchi:

S. Annaklichev

Komissiya a‘zolari:

S.Annaklichev, O.Voxidov, A.Azimov,
J.Yusupov, A.Nazarov, J.Dusmuxamedov,
A.Fayzullaev.

Kotib:

Sh.Yusupov

KUN TARTIBI:

**Bank xodimlarining o‘zaro manfaatlar to‘qnashuvini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan
tahlil natijalari**

Kun tartibidagi masala bo‘yicha Inson resurslarini boshqarish departamenti direktori A.Azimovga so‘zga chiqib quyidagilarni ma‘lum qildi.

Mehnat kodeksining 121 moddasida O‘zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo‘ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo‘lishiga bog‘liq bo‘lsa taqiqlanadi deb ko‘rsatilganligini ma‘lum qildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida qonun 2024 yil 5 iyunda yangidan tasdiqlangan bo‘lib, qonunda yaqin qarindoshlarga ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari kirishi ko‘rsatilgan.

Shunga ko‘ra tizimda Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida qonun talablaridan kelib chiqib “Biznesni rivojlantirish bank” ATB tizimida faoliyat yuritayotgan hodimlarning bir biriga yaqin qarindoshligi taxlil qilinganida **jami 94 ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjudligi aniqlandi. Jumladan;

5 ta haqiqiy ya'ni biri ikkinchisining nazorat ostida bo'lishi hamda **89 ta potentsial ya'ni** biri ikkinchisiga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuv ostida bo'lmagan, biroq kelgusida bank manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi yoki xodimlar tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy vaziyat ma'lum bo'ldi. *Jadval ilova qilinadi.*

Kelgusida bank manfaatlarining buzilishini oldini olish maqsadida **haqiqiy** manfaatlar to'qnashuvi holatlarini **hal qilish** choralari ko'rish, **potentsial** manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha profilaktik chora tadbirlar amalga oshirilishi lozimligini ma'lum qildi.

Komissiya a'zolari taqdim etilgan hujjatlar hamda bildirilgan takliflarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Inson resurslarini boshqarish departamenti (**A.Azimov**) zimmasiga;
 - **haqiqiy** manfaatlar to'qnashuvi deb baholangan holatni ko'rib chiqish va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun talablariga asosan tegishli choralarni amalga oshirish;
 - **potentsial** manfaatlar to'qnashuvi deb baholangan holatlari kelgusida **haqiqiy** manfaatlar to'qnashuviga olib kelishini oldini olish maqsadida, potentsial manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlangan xodimlar bilan **joriy yil 20 mayga** qadar texnik o'quv o'tkazish;
 - bank tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarning "ob'ektivka"laridagi yaqin qarindoshlar ko'rsatilgan qismidagi ma'lumotlar joriy yilning 1-iyun holatiga qadar "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun talablari asosida yangilash vazifasi yuklatilsin.

2. Inson resurslarini boshqarish (**A.Azimov**) va Komplaens nazorat (**J.Yusupov**) departamentlari birgalikda Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida qonun talablaridan kelib chiqib "Biznesni rivojlantirish bank" ATB tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning bir biriga yaqin qarindoshligi holatlarini doimiy tahlil qilinib borsin hamda kamida har olti oyda bir marotaba **Odob-axloq komissiyasi muhokamasiga kiritsin.**

kelishuvchilar: O.Voxidov, A.Azimov, J.Dusmukhamedov , A.Fayzullayev, A.Nazarov, J.Yusupov
<https://hujjat.brb.uz/?pin=fU35xN64&id=05f61b99-8a00-4464-85e7-fd35d631b64f>